

MODAGA DOIR TERMIN VA MATNLARNI TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA TARJIMA USLUBLARI

Ne'matova Lobar

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi

Email: lbarnematova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada modaga oid termin va matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishdagi ishlatiladigan usullar va duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolar bayon qilinadi. Shuningdek, maqolada tarjimashunos olimlar L. Venutti, Ye. Nida hamda P. Newmarklar tomonidan taklif etilgan nazariyalarning modaga doir matnlarni tarjima qilishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Maqolaning amaliy qismida moda jurnalidan olingan matn namunasi tahlil qilinadi va tarjima uchun xizmat qilgan samarali uslublar taklif etiladi. Shu bilan bir qatorda modaga doir terminlarni tarjima qilishda ishlatiladigan transformatsiyalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. foreignization, localization, dinamic, ekvivalentlik, kommunikativ, semantik.

Hozirgi kunda moda bu faqatgina kiyinish emas, balki insonlarning ijtimoiy madaniy qarashlarini aks ettiruvchi vosita hamdir. Modaga doir termin va matnlar esa o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, tarjima qilish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, ingliz va o'zbek tili singari sintaktik, grammatik, semantik va madaniy jihatdan tubdan farq qiluvchi tillarda bunday qiyinchiliklarga tez-tez duch kelamiz.

So'nggi asrdagi texnologiyalarning hamda internet olamining rivoji globallashuvni yana ham yuqori sur'atlarda o'sishiga turtki bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida kiyim-kechaklar, ayollarning go'zallik vositalari va uy-ro'zg'or buyumlari brendlariga tegishli matnlarni hamda reklamalarni tarjima qilish orqali keng ommaga tanitish ehtiyojini tug'dirdi. Shu bois ayni kunlarda rivojlanib borayotgan moda sohasiga o'z ishining mutaxassislari bo'lgan tarjimonlar juda ham zarur.

Modaga oid matnlar tarjimasidagi asosiy muammolar ikki xalq madaniyati va til strukturalari orasidagi tafovutlar tufayli kelib chiqadi. Asosan, turli terminlarni yoki reklamalardagi ritm, undov va ohangdorlikni aslyat tildagi kabi maqsadli tilga ko'chirish mushkul hisoblanadi. Bunday muammolarni hal qilish uchun tarjimashunoslarimiz bir qancha samarali metodlarni tavsiya qilishgan.

Terminlarni to'g'ri va tushunarli tarjima qilish borasida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Bu borada Lawrence Venutti o'zining "The Translator's Invisibility" kitobida "foreignization" uslubida tarjima qilish termin aslida tegishli bo'lgan til madaniyatini saqlab qolishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan. Hattoki, bu usul terminni qabul qiluvchi tilni boyishiga o'z hissasini qo'shishi mumkin (Venutti, 2016). Bu strategiya ayniqsa modaga oid matnlarni tarjima qilishda tarjimonning ishini osonlashtiradi, hamda madaniyatlararo kelib

chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni ham keskin kamaytiradi. Vaholanki, modaga doir atamalarni tarjima qilish ma'lum bir brendning yoki dizaynerning o'ziga xosligiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ma'lumki, shu kunga qadar ko'plab modaga doir birikmalarning ayrimlari o'zining asl ma'nosidan ancha uzoqlashganiga qaramasdan butun dunyo bo'ylab keng qo'llanilib kelinmoqda. Ammo Venutti qarama-qarshi ravishda domestication (mahalliyashtirish) usulini ham ta'riflab o'tgan. Unga ko'ra bu usul asliyatni o'quvchiga aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Tabiiyki, bunda madaniy va tarixiy tafovutlar tarjima jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Olimning ta'riflashicha foreignization bu asliyat matnni markazlashlashtirsa, domestication uslubi esa tarjima matnni markaziy nuqtaga aylantiradi. Biroq Pym (1995) foreignization uslubini keskin tanqid qilgan, uning fikricha bu uslub madaniyatlarning o'zgarishga sabab bo'lishi mumkin. Vaholanki, kiyim-kechak modasida madaniyatlar almashinuvi ro'y berishi tabiiy hol, albatta. Masalan, "make-up" so'zi ancha ommalashgan bo'lishiga qaramasdan, uni "pardoz" deb tarjima qilish mumkin. "Brand" so'zi esa foreignization usulida tarjima qilinib, "brend" holatida ishlatiladi. Bu yerda faqat transkripsiya transformatsiyasi ishlatilgan. Bundan tashqari aksariyat moda bilan bog'liq terminlar fransuz yoki italyan va ba'zida ispan tiliga tegishlidir, jumladan "Haute-couture" (haute-"dressmaking" couture-"high") asli fransuzcha so'z bo'lishiga qaramasdan ingliz tiliga qabul qilingan, ammo uni o'zbek tiliga "yuksak maqomga ega libos namunasi" yoki "yuqori darajadagi libos" deb tarjima qilishni taklif qilish mumkin. Bunday holatda Venutti tomonidan taklif etilgan mahalliyashtirish usuli mos tushadi.

Zamonaviy tarjima nazariyasida eng taniqli olimlardan biri Ye. Nidaning ham ilgari surgan yondashuvlari modaga doir matnlarni tarjima qilishda ahamiyatlidir. Jumladan, shakliy va dinamik ekvivalentlik strategiyalari ko'plab muzokaralarga sabab bo'lgan. Shakliy ekvivalentlik, asosan, matndagi grammatik va semantik xususiyatlarni saqlab qolgan holda tarjima qiladi. Bu esa o'quvchiga asl matnni to'liq va aniq tushunishiga yordam beradi. Dinamik ekvivalentlikda matnga strukturaviy jihatdan ko'plab o'zgartirishlar kiritilishiga qaramasdan, asl mohiyat o'quvchiga yetkazib beriladi. Bunda tarjimon asliyatda bo'lmagan ibora va birikmalarni qo'llashi mumkin. Bu ikki uslub moda jurnallaridagi matnlarni tarjima qilishda keng qo'llaniladi.

Tarjimashunoslikka ulkan hissa qo'shgan ingliz olimi Peter Newmark tomonidan taklif etilgan kommunikativ hamda semantik tarjima uslublari modaga doir matnlarni tarjima qilishda keng qo'llanilib kelmoqda. Kommunikativ tarjima uslubining asosiy maqsadi asliyatda berilgan matnning ta'sirchanligiga urg'u berish bo'lib, tarjimon o'sha ta'sirni boricha o'quvchiga yetkazishga urinadi. Bu uslub ayniqsa modaga doir matnlarni tarjima qilishda muhim rol o'ynaydi chunki kiyim-kechak yoki kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaradigan brendlar ularning mahsulotlari naqadar unikal ekanligini yetkazib berishga urinishadi. Newmark tomonidan taklif etilgan semantic tarjima uslubidan kosmetika vositalirining yorliqlarini tarjima qilishda foydalanish mumkin, chunki

bu uslub murakkab strukturaga ega va har bir tafsilotni o'quvchiga yetkazishga undaydi. Ma'lumki, kosmetika vositalarining qo'llanilish yo'riqnomasi batafsil, aniq va tushunarli bo'lishi muhimdir. Panou bu ikki metodni taqqoslash yoki qaysi afzalroqligi haqida o'ylash kerak emas, aksincha har ikkalasini ham parallel ravishda qo'llash mumkin deya fikr bildirgan.

The classic square shape remains the most versatile, but this season also brings popularity to triangular and asymmetrical styles. The color palette is rich and varied – from soft pastels to bold reds, greens, and cobalt blues. Trending prints include ethnic patterns, vintage motifs, animal prints, and florals. As for materials, silk continues to be the top choice, but more affordable options like satin or viscose are also in demand. The key is a soft texture and beautiful draping.

Klassik kvadrat shakli eng ko'p qo'llaniladigan bo'lib qolmoqda, ammo bu mavsumda uchburchak va nosimmetrik modellar ham ommalashgan. Ranglar juda xilma-xil: och ranglardan to'q qizil, yashil va ko'k ranglargacha. Etnik naqshlar, vintage uslubidagi bezaklar, hayvonot va gul tasvirlari urf bo'lmoqda. Materiallarga kelsak, ipak hamon eng yaxshi tanlov, biroq atlas yoki viskozaning arzonroq turlari ham dolzarb. Eng muhimi – matoning yumshoqligi va chiroyli yoyilishi.

Yuqorida berilgan misolni Ye. Nida tomonidan taklif etilgan dinamik ekvivalentlik usulidan foydalangan holda tarjima qilingan deyish mumkin, chunki o'zbek tili strukturaviy jihatdan ingliz tilidan tubdan farq qiladi. Asl mohiyatni saqlab qolgan holda o'quvchiga yetkazilgan. Newmark nazariyasi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, kommunikativ usul ustunlik qilayotganini bilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, modaga doir atama va matnlarni tarjima qilishda asliytdagi jilodorlikni saqlab qolish juda muhim. Shu yuzasidan, tillar o'rtasidagi tafovutga qaramasdan tarjimondan yuqorida sanab o'tilgan transformatsiyalar va strategiyalardan unumli va mohirona foydalanish talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yang W. Brief study on domestication and foreignization in translation.– Finland: Academy publisher, 2010. – 77-80.
2. Venutti L. The Translator's Invisibility. – London: Routledge publisher, 1995. -120-135.
3. Witter-Merithew, Anna and Leilani Johnson. - Market disorder within the field of sign language interpreting: Professionalization implications. - RID Journal of Interpretation 2004. -19-55.
4. Noris A., SanMiguel P., Cantoni L. - Localization and Cultural Adaptation on the Web: An Explorative Study in the Fashion Domain. – Switzerland: Università della Svizzera italiana, 2015, 3-5.
5. <https://elleuzbekistan.com/en/silk-scarves/>
6. <https://www.businessoffashion.com/articles/creative-class/fashion-a-z/#haute-couture>